

**OLIV TA'LIM TIZIMIDA TUB ISLOHOTLARNING AMALIY NATIJALARI
TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI MISOLIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7826813>

Komolova Faridaxon Qodirjonovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Andijon akademik litseyi

“Tarix” fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida olib borilgayotgan islohotlarning amaliy natijalari ko'rsatilgan bo'lib, Turin politexnika Universiteti ta'lim tizimidagi islohotlar va o'quv dasturi qo'shimcha sifatida aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, islohotlar, Turin, Politecnico di Torino, xorijiy oliygohlar, axborot resursi.*

KIRISH

Bugungi global va mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy vaziyat, milliy mustaqillik rivojlanishiga ichki va tashqi potensial tahdidlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy barqaror taraqqiyotini, ijtimoiy muvozanat, tinchlikni ta'minlash masalasini benihoyat dolzarblashtiradi. Ushbu masala ma'naviy xavfsizlik bilan uzviy bog'liqdir. Zero, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, tinchlik va osoyishtaliksiz ma'naviy xavfsizlik taraqqiyot strategiyasini hayotda qaror topishida qiyinchiliklar tug'diradi. «Mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini turli tahdidlardan himoya qilish, tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlash-barcha yutuqlarimizning bosh garovidir»³⁷-deydi Shavkat Mirziyoev.

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti (TPTU) 2009 yil 27-aprelda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2009 yil 27 apreldagi PP 1106 – sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'zavtosanoat OAJ hamda Italiyaning Turin politexnika universiteti (Politecnico di Torino) bilan hamkorlikda tashkilot va korxonalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.

1859 tashkil etilgan hamda Yevropaning eng ilg'ol texnik universitetlaridan biri bo'lgan Italiyadagi Politecnico di Torino ta'lim jarayonini ilmiy va amaliy tadqiqot bilan faol ravishda birga olib borishi bilan xarakterlanadi.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirdiyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi “Xalq so'zi” gazetasi, 2018 yil 29 dekabr, № 271–272 (7229–7230).



I-rasm. Turin Politexnika universitetining tashqi binosi kampusi³⁸

Universitetda 18-fakultet va ko'plab yirik avtomobil va boshqa korxonalar uchun asosiy ilmiy-tadqiqot markazi bo'lgan 19-ilmiy tadqiqot markazi va laboratoriyalarda mavjud. O'zbekistonda e'tirof etilgan xalqaro talablarga muvofiq keluvchi bunday Yevropa oliygohini ochilishi O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi maqsad va vazifalariga to'laqonli mos keladi. Shunindek, yangi oliy o'quv yurti ochilishining muhim maqsadlari o'quv jarayoniga mahalliy professor-o'qituvchilar tarkibini jalb qilish, professoro'qituvchilar uchun uzluksiz ta'limiy dasturni shakllantirish va TTPU tarkibida ilmiy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish, hamda avtomobil dezayni, dvigateli, ehtiyot qismlari, butlovchi qismlari, asbob-uskunalarini bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalarini qo'llash, va arxitektura va sanoat dezayni, energiya tejovchi texnologiyalar, mahalliy xom ashyo asosida qurilish materiallarining yangi turlarini yaratish imkoniyatini beruvchi texnoparkni tashkil etishdan iborat.

Ikki mamlakat (Italiya va O'zbekiston) o'quv dasturlari orasidagi tafovutlarni uyg'unlashtirish maqsadida TTPU va POLITO mahalliy ta'lim standartlariga moslashtirilgan xolda Yevropa Ittifoqi o'quv dasturiga ayrim o'zgartirishlar kiritilgan xolda qabul qilishga kelishib oldilar. Ulardan biri eng kamida OTMda o'qishdan oldin eng kamida 12 yil o'qish lozim bo'lgan Italiya talablari va talabalarni zaruriy tayyorgalikka erishishlari uchun Universitetda qo'shimcha Tayyorlov yili joriy etilishidir. TTPUdagi mavjud o'quv dasturi turli ta'limiy strukturalarda alohida tajriba sifatida qo'llanilishi mumkin, hamda u proekt maqsadlarini amalga oshirilishida ishlatilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJA

TTPU bitiruvchilari Politecnico di Torino (POLITO) bakalavr (BSc) va magistr (MSc) darajalariga juft ravishda ega bo'ladilar. TTPU

³⁸ Google.com sayti ma'limotlariga asosan olindi 2023-yil \\http\google.com



2-rasm. Italiyadagi Politecnico di Torino Universitetining asosiy binosi

Ustavida ko'rsatilganidek, TTPU va POLITO o'rtasidagi ikki darajali kelishuv asosida TTPU bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra TTPU diplomiga hamda Italiya Respublikasi qonunchiligiga ko'ra POLITO diplomiga ega bo'ladilar. Ma'lumki, O'zbekistonda mashinasozlik va boshqa sanoat turlari rivojlanib borayotganligi sababli Mashinasozlik texnologiyasi, Arxitektura, Axborot texnologiyalari va sanoatda dasturlash (Kompyuter muhandisligi) sohalaridagi mutaxassislarga O'zbekiston Respublikasidagi ko'plab korxonalar va tashkilotlarda talab yuqori bo'ladi.

TTPU oliy ta'lim tizimida boshqa nodavlat oliy o'quv yurtlari bilan bir qatorda oliy ta'lim sohasida ta'limiy faoliyat ko'rsatish uchun lozim bo'lgan litsenziyaga ega bo'ldi. Tegishli davlat organi tomonidan berilgan mazkur xujjat Universitetga mashinasozlik sanoati, avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari, qurilish va arxitektura sohalarida mutaxassislarni tayyorlash huquqini yana bir karra berdi.

Shuningdek, TTPU oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda ISO 9001 sifat sertifikatiga ega bo'lgan O'zbekistondagi eng birinchi universitetlardan biriga aylandi. Bundan tashqari, Moreover, bitiruvchilarga nafaqat ta'lim berish, balki kelajakdagi kasblarida ham olgan bilimlarini amalga oshirish orqali ta'lim, ilmiy va tadqiqot vazifalaridan tashqari bilim va texnologiyalarni tijoratlashtirish uchun universitet 3:0 maqomini olgan universitetga aylandi. Kelajakda iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlarini birlashtirgan oliy ta'lim modelini shakllantirish maqsadida universitet 4:0 maqomini olishga qadam qo'ymoqda.



3-rasm. TTPU Axborot resurs markazi binosi³⁹

XULOSA

Xorijiy oliygohlarning filiallarinin mamlakatda ko`paytirish nafaqat oliy ta`lim tizimining reytingini va ta`lim sifatini oshishiga olib keladi, balki ularning moliyalashtirish mexanizmiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Bu borada ilg`or xorijiy tajribalarni tahlil qilish natijasida ularning ayrimlaridan mamlakatimiz oliy ta`lim muassasalarini moliyalashtirish tizimida ham foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. TTP Universitetining Toshkentdagi filiali bunga yaqqol misol bo`la oladi. Universitet bitiruvchilarining xalqaro maydonda yuksak natijalarga erishganini doimiy ravishda ko`rishimiz miumkin.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirdiyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi "Xalq so`zi" gazetasi, 2018.

2. Belyaeva I.S. Texnik universitet talabalari uchun ingliz tili darsligini tuzish tajribasidan / I.S. Belyaeva, A.E. Shabanova // Turin Politexnika universitetining axborotnomasi. Seriya: Ijtimoiy va gumanitar fanlar. - 2019. - No 3. - B. 18–23.

3. Ivanova T.A. Italiyaning yagona ta'lim makoniga integratsiyalashuvi sharoitida Tver davlat texnika universitetida chet tillarini o'qitish / T.A. Ivanova, I.V. Skugareva, A.E. Shabanova // Tver davlat texnika universitetining axborotnomasi. Seriya: Ijtimoiy va gumanitar fanlar. - 2016. - No 2. - B. 88–93.

4. Okan G. I. Universitetda faol o'qitish usullari: mazmuni va amalga oshirish xususiyatlari // Ilmiy muloqot. 2012. No 1. S. 265–270.

5. www.google.com

6. www.polito.uz

7. www.norma.uz

8. www.lex.uz

³⁹ <https://irc.polito.uz/en/home/> saytidan olingan.